



2023



*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*

МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илмий-методикалық журнал № 1

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агенттігі тәрепинен
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-саны гүйділдік берилген.*

Нөкис

Шолжемлестириүшілдер:
Қарақалпақстан Республикасы Халық ғылымленидириү Министрлігі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұја АЙТБАЕВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қажхор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

Курганов А. М. Инглиз ва ўзбек тиллари ҳарбий терминларининг лингвомаданий бирликларда ифодаланиши	6
Маллаева О. М. Умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал қасбий ривожланиши траекторияси масалалари	18
Рузметова Н. В. Роль и значение английского языка в профессиональной ориентации будущих правоведов	24

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Bazarbaeva M. A. Baslawish klaslarda oqiw-tárbiyaliq jumislar processinde informacion-kommunikaciya texnologiyalarin paydalaniw	32
Хаджибеков С. Н. Таълим кластери субъектлари интеграциясини лойиҳалаш механизми	37
Ўбайдова В. Э. Ўзбекистонда экспортбоп енгил саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришида Накъбандия таълимотини кўллашда сухбат методидан фойдаланиши	41
Хаджибеков С. Н. Педагогик тажриба-синов ишларининг сифат ва самарадорлиги	47
Qurbanova Z. M. Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda mahmud az-zamaxshariyi ta'lomitidan foydalanish	51
Turgunova A. T. Avlodlararo munosabatlardan tizimida gerontopedagogika	59
Salieva P. A. Malaka oshirish tizimida boshlangich sinfi o'qituvchisining kasbiy kompotentligini takomillashtirishda rivojlantiruvchi ta'lim o'mni	67
Jumanov A. A. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holati va muammolari	72
Ergashev B. B., Mirsaidov I. T. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari	77
Файзуллаев Р. Х., Сайфиева Ю. Ў. Олий таълим муассасалари талабалари фанлардан мустақил билим олиш, фикрлап, кўникума ва малакаларини шакллантириши	85
Чориев Р., Баратов М. Касб таълими мутахассисларини дуал тизими асосида қасбий фаолиятта тайёрлаш	91
Эргашева Г. Р. Мутахассиснинг қасбий мосламишига таъсир кўрсатувчи омиллар	97
Ходжанов А. Р. Талабаларни тарбиялашда педагогик фаолиятта куйладиган замонавий талаблар	102
Ярова С. Б. Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини такомillashtiriшнинг назарий асослари	111
Очилов А. Х. Таълим инновацияси	118
Болиев У. И. Олий ўкув юргида талабаларни мусиқа таълими воситасида маънавий-ахлоқий тарбиялашга қўйиладиган талаблар	122
Shodiyev H. R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanim o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish	126
Элмурзаева Н. Х. Интеграциялашган таълимнинг асосий vazifasasi	132
Ahadov M. Sh. Kimyoda ekstern ta'limni joriy etish metodikasi	136
Samiyeva Sh. X. Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilarning fikrlash tipologiyasini rivojlantirish	143
Fayzullaev R. X. Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs pedagogning o'mni va roli	154
Muqumova D. I. Ta'lim jarayonidagi pedagogik ixtiloflar, ularning sabablari va bartaraf etish choralari	160
Исмайлова З. К. Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларининг мобиллилик қобилиятини ривожлантириши	168



Мустафоева Д. А., Маматалиева М. И. Инновацион таълим жараёнларини ташкиллаштиришнинг касбий-ижтимоий зарурати	178
Садикова Ф. М. Компетенциявий ёндашув асосида талабалар мустақил ишни ташкил этиш	183
Жўраева Г. А. Профессионал таълим йўналиши ўқувчи-талабаларида касбий компетенцияларни ривожлантириш	189
Мусаева Г. У. Ёшларни касбий фаолиятга йўналтириш самарадорлигини таъминлаш	195
Olimova D. M. O'quvchilarni milliy kashtachilik asosida estetik tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi metodik muammo sifatida	200
Abduxamidov S. M. Ta'lim metodlari haqida umumiylar	207
Abduxamidov S. M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarining mazmun va mohiyati	210
Allayorova S. B. Ta'lim samaradorligini oshirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari	213
Allayorova S. B. Ta'lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi	219
Jamoldinova S. N. O'situvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati	224
Jamoldinova S. N. Kommunikativ qobiliyat - ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida	229
Элмурзаева Н. Х., Сайдов З.Х., Абдуллаева М.Х., Маруфхонова С.У. Таълим тизимининг инновациялар жараёнлари	236
Мустафоева Д. Факторы развития компетентности персонала профессиональных образовательных учреждений	242
Элмурзаева Н. Х., Сайдов З. Х. Абдуллаева М. Х. Маруфхонова С. У. Методика стратегического планирования	248
Шахмуррова Г. А., Халикова Р. А. Формирование генетической грамотности у студентов биологического направления	253
Элмурзаева Н. Х. Профессиональное саморазвитие педагога	
Zaripova D. A. Training students on the basis of smart technologies in the development of innovation activities	262
Khamrayeva G. R. Model of development of education quality assessment skills of vocational education students	270

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

Норинов Ф. Қ. Геология фанининг тарихийлик нуқтаи назаридан тавсифий таҳлили	278
---	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Jumamuratov A. J., Kalilaev F. K. Mekteplerde elementar bôleksheler fizikası bólimin oqítıwdı jetilistiriw jolları (Mektep fizika pâni muğallimlerine metodikalıq járdem)	286
Джумабаев К. Н. Умумий ўрта таълим мактабларидага python дастурлари тилини ўқитиш муаммолари	293
Бекназарова З. Ф. Физика фанини ўқитишда кейс технологиясини ташкил этиш	299
Бекназарова З. Ф. Олий таълимда физика фани амалиёт дарсларини педагогик технологиялар асосида олиб бориш	305
Мавлонов Р. А. Қурилыш йўналишлари талабаларига чизма геометрия фанини ўқитишда компетентли ёндашув	309
Djumaev M. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzlucksizligining o'ziga xos xususiyatlari	314



KOMMUNIKATIV QOBILIYAT - TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH MANBAI SIFATIDA

Jamoldinova S. N.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti
“Pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi*

Tayanch so’zlar: kommunikatsiya, kommunikativ qobiliyat, komminukatsiya kanali, verbal kommunikatsiya, noverbal komminukatsiya, motiv, dominat, dramatik, bevosita usul, bilvosita usul.

Ключевые слова: коммуникация, коммуникативная способность, коммуникативный канал, речевое общение, невербальное общение, мотив, доминирование, драматический, прямой метод, косвенный метод.

Key words: communication, communicative ability, communication channel, verbal communication, non-verbal communication, motive, dominance, dramatic, direct method, indirect method.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o’zaro harakat sohasida maxsus ko’rinishga ega bo’lgan muloqotga qobiliyatlilikdir. Shaxsnинг atrofidagilar bilan o’zaro munosabat o’rnatishi. Munosabat jarayonida u o’zining nutqi, ko’rinishi, xatti-harakatlari orqali o’zgaga ta’sir etish jarayoni. Bu komminukatsiya har bir shaxsda bo’ladi faqat turli xil ko’rinishlarda namoyon qilishadi. Kimdadir bu qobiliyat yuqori darajada kimdadur sust darajada, kimdadur umuman rivojlanmagan bo’lishi mumkin. Pedagogik qobiliyat bu ta’lim-tarbiya jarayonida munosabatlarda jarayon qatnashchilari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni nazarda tutamiz. Pedagogik kommunikatsiya faqatgina ta’lim-tarbiya jarayonida kuzatilib bu jarayonni yana samaradorligini oshirish uchun hizmat qiladi. Pedagogikada kommunikatsiya to’g’ri muomala qilish qoidalari, muloqot jarayonida har bir inson suhbattoshiga ta’sir etish usuli tartiblarini to’g’ri yo’lga qo’yilishi jarayonlarini qamrab oladi. Pedagogik qobiliyatni psixologik jihatlari shundaki, muloqot jarayonida shaxsni ongiga uning ruhiyatiga ta’sir eta olish qobiliyatidir. Psixologik jihatdan ta’sir etish ham muhim ro’l o’ynaydi. Ya’ni insonga nutqimizdan qa’ti nazar unga harakatlarimiz, nutqimizning ohangi, mimik va pantomimik harakatlarimiz ham ta’sir etish jarayonida asosiy o’rinni egallaydi. Chunki ayrim insonlarda



aytilgan gaplar va so'zlardan ularni shu muloqot jarayonidagi holatlari hoitirada yaxshi qoladi. Aynan shu harakatlar holatlar orqali u vaziyatlarni yoki ayrim hodisalarini eslab qolamiz.

Psiyologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi:

1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini "o'qish" ko'nikmasi)

2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash);

3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

Kommunikatsiya bu:

1) bir shaxsdan ikkinchisiga, bir madaniy birlikdan boshqasiga axborot) uzatish;

2) axborot almashinuvi jarayonida ishtirokchilarini o'zaro bog'lab turgan liniya yoki kanal;

3) axborotni uzatish yoki qabul qilishga yordam beradigan o'zaro harakat, axborot uzatish yoki qabul qilish jarayoni.

Kommunikatsion jarayonlarning asosiy vazifalari: insonlarning bir-biriga o'zaro ta'siri; turli g'oyalari, manfaatlar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular bilan almashinishi.

Insonlar orasidagi muloqotning xususiyatlari:


1) har biri faol sub'ekt bo'lgan ikki individning mavjud munosabatlari (bu holda ularning o'zaro axborot almashinuvi birgalikdagi faoliyat yo'lga qo'yilishini ko'zda tutadi);

2) hamkorlarning bir-biriga belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sir ko'rsatish imkoniyati (verbal va noverbal kommunikatsiyalar);

3) kommunikatorda (axborot yo'llayotgan odamda) va recipientda (uni qabul qilayotgan odamda) yagona yoki o'xshash kodlashtirish va kodni ochish tizimlari mavjud bo'lgan holdagina kommunikativ ta'sir ko'rsatish;

4) kommunikativ to'siqlar yuzaga kelish ehtimoli (bunday holda muloqot va munosabat o'rtasida mavjud bo'lgan bog'liqlik aniq-ravshan namoyon bo'ladi).

Muloqotning kommunikativ uslublari – bu boshqa insonlar bilan muloqot qilish jarayonida birga harakat qilish usullaridir.



Kommunikativ muloqotning o'n ko'rinishi:

- 1) dominant – kommunikatsiyada boshqalar rolini (o'rnini, ahamiyatini) kamaytirishga yo'llangan usuli;
- 2) dramatik – ma'lumot mazmunini bo'rttirish va unga emotsional bo'yoq berish usuli;
- 3) bahsli – kommunikativ muloqotning tajovuzkor yoki isbotlashga qaratilgan uslubi;
- 4) tinchlantiruvchi – bo'shashtiradigan, maqsadi, ayniqsa konfliktli vaziyatlarda hamsuhbatining xavotirini kamaytirishga qaratilgan muloqot uslubi;
- 5) taassurotli – muzokaralar bo'yicha hamkorda taassurot qoldirishga qaratilgan strategiya;
- 6) aniq – xabarning aniq-ravshanligiga qaratilgan;
- 7) e'tiborli – hamsuhbatlar kommunikativ muloqot jarayonida nimalarni so'zlayotganiga qiziqish bildirish;
- 8) ko'tarinki (ruhlangan) – noverbal axloq – ko'z, imo-ishora, tana harakatlari kabilardan tez-tez foydalanish;
- 9) do'stona – hamsuhbatini ochiq rag'batlantirish va uning muloqotga qo'shgan ulushidan manfaatdorlik;
- 10) ochiq-oydin – o'z fikri, his-tuyg'ulari, emotsiyalari, o'zligini, shaxsini namoyon etadigan jihatlarini qo'rqlmay ifodalashga bo'lgan intilish.

Kommunikatsiya kanali – ular yordamida yoki ular orqali axborot uzatiladigan vositalar yoki yo'llar.

Kommunikatsiya kanal turlari:

- 1) bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) – bunda axborot bevosita axborot tashuvchidan xabardor shaxsga uzatiladi;
- 2) bilvosita – bunda axborot uchinchi shaxslar orqali uzatiladi;
- 3) rasmiy – aniq va ishonarli axborotni taqdim etadi;
- 4) norasmiy – ishonchli manbalarga ishora qilmagan holda mish-mishlar, fikr almashinuvi orqali tekshirilmagan axborot taqdim etadi.

Kommunikatsiya quyidagi sabablar tufayli konflikt manbai bo'lib kelishi mumkin: fikrlar, qarashlar, voqealarni baholashdagi farqlar; voqe-a-hodisani ikki xil talqin qilish; odamlar axloqi (o'zini tutishi)dagi farqlar.

Odamlar axloqiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: hayot tajribasi, muayyan vaziyat, shakllangan qarashlar yoki individning baholashga moyilligi.

Uch elementi: kognitiv (bilimlar), ularning affektiv (kuchli ehtiroslar), axloqiy (o'zini tutish shakli) mavjud.



Sotsial qarashlar – ruhiy-asab tizimining tayyorlik holati, tajriba asosida shakllanib boradi va individning u bog'liq bo'lgan barcha ob'ektlar va vaziyatlarga nisbatan reaksiyalariga yo'naltiruvchi dinamik (o'zgaruvchan) ta'sir ko'rsatadi.

Ishontirishning ikki usuli – bevosita va bilvosita.

Bevosita usul – manfaatdor auditoriya butun e'tiborini maqbul (ijobiy) dalil-isbotlarga qaratgan holda mavjud bo'lgan ishonch. Bunda dalil-isbot (argument) larning o'zigina emas, balki ular keltirib chiqaradigan fikr-mulohazalar ham ishonchli (ishonarli) bo'ladi.

Bilvosita usul – odamlarga tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatib, ular ongiga murojaat qilish talab etilmaydigan holda mayjud bo'lgan ishonch (ishontirish). Bu ta'sir usulida ishora(shama)lar qo'llanib, ular o'ylab o'tirmay qo'llab-quvvatlashga rozi qiladilar.

Ishonchning to'rt tarkibiy qismi:

- 1) kommunikator;
- 2) axborot (xabar);
- 3) uzatish kanali;
- 4) auditoriya.

Axborot uzatish xususiyati: nafaqat kim gapi rayotganligi, balki uning aynan nimani gapi rayotganligi ham muhim.

O'zini tutishiga qarab auditoriya quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- 1) fikrlaydigan, mulohaza qiladigan, manfaatdor, ya'ni bevosita ishontirishga bo'yin berish, moyil bo'lish. U ayniqsa ongli dalil-isbotlarga ta'sirchan bo'ladi;
- 2) e'tiborsiz, ya'ni bilvosita shamalar ta'sirida qolish. Unga hammasidan ko'proq kommutator yoqish, yoqmasligi ta'sir ko'rsatadi.

Yaxshi kayfiyat samarasi. Ijobiy his-tuyg'ular qobig'iga "o'ralgan" xabarlar ishonarliroq bo'lib chiqadi. Yaxshi kayfiyatdagি odamlar olamni ijobj tarzda ko'rib, shoshilinch qarorlar qabul qilishga moyil bo'lib, ko'proq bilvosita shamalarga ishonadilar.

Qo'rquvni faollashtirish samarasi. Ba'zan salbiy (negativ) his-tuyg'ularga qaratilgan xabar ham ishonarli chiqishi mumkin. Salomatlik bilan bog'liq xabarlar qo'rquv uyg'otishda ko'proq ta'sir ko'rsatib, odamni "chekkaga" taqab qo'yishga xizmat qiladilar va bunda axborotni qabul qilmaslik yoki siqib chiqarish hodisasi yuz beradi. Samarali himoya strategiyasini taklif qilib, buning oldini olish mumkin.

Axborotni buzib ko'rsatish mexanizmi. Axborotning qabul qilinishi quyidagilarga bog'liq:



1) xabar beruvchiga bo‘lgan ishonch, uning bilimdonligi, xabardorligi. Auditoriyaning ishonchini qozonish usullaridan biri – auditoriya qo‘shiladigan (rozi bo‘lgan) mulohazalarni bildirish, yana bir usuli – ushbu masaladan xabardor kishi sifatida tanishtirish (taqdim etilish)dan iborat;

2) kommunikatorning so‘zlash uslubi – u ishonchga sazovor uslub tarzida qabul qilinish yo qilinmasligi;

3) nutq ishonchliligi va sur’ati, to‘g‘ri ko‘zga qarab so‘zlash, biron-nimani o‘z manfaatlari zarari hisobiga bo‘lsa ham himoya qilish.

Ko‘pgina odamlar mashhur shaxslar fikri ularga ta’sir ko‘rsatishini tan olmaydilar, chunki ular bu yo‘nalishda mutaxassis emasligini anglab yetadilar. Bu holda bir qancha jihatlariga ega bo‘lgan jozibadorlik muhim o‘rin tutadi: jismoniy yoqimtoylig, simpatiya (dalil-isbotlar chiroyli, o‘ktam shaxslar tomonidan bildirilganida, ko‘proq ta’sir qiladilar) va o‘xshashlik (biz o‘zimizga ko‘proq o‘xshaydigan odamlarga moyillik bildiramiz).

Fikrlar har xilligi: 1)agar kommunikator bilimli va shu bilan birga ishonchli manba bo‘lsayu, auditoriya bu muammoga u qadar qiziqish bildirmasa, u o‘ta ziddiyatli, ekstremistik nuqtai nazarni taqdim etishi mumkin. Nifoq-kelishmovchiliklar qancha ko‘p bo‘lsa, dastlabki pozitsiyaning o‘zgarish ehtimoli shuncha katta; 2) agar kommunikator ishonarli manba bo‘lmasa, u noxush xabarni taqdim etish bilan umuman ishonchdan mahrum bo‘lishi, o‘zini shaxsiy manfaatlarini ko‘zlagan va noxolis shaxs sifatida namoyon etishi mumkin. Auditoriyani mazkur muammo qiziqtirsa, biroz farqli, ayniqsa qarama-qarshi nuqtai nazarga asoslangan fikr unga radikal qarash bo‘lib tuyulishi mumkin.

Asil dalil-isbotlarga murojaat qilish: 1)bir tomonlama xabar usiz ham bildirilayotgan fikrga qo‘shilgan odamlar uchun ayniqsa samaralidir; 2) asil dalil-isbotlarni ko‘rib chiqadigan xabar, dastlab unga qarshi bo‘lganlarga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi; 3) ikki tomonlama ta’siri xotirada uzoqroq vaqt saqlanib qoladi.

Agar auditoriyaga qarama-qarshilari qarashlar (fikrlar) to‘g‘risidagi xabar (ma’lumot) ma’lum bo‘lsa, bu holda ikki tomonlama xabar ko‘proq samara keltiradi. Bir tomonlama xabar (axborot) auditoriyani asil dalil-isbotlar (kontrargumentlar) to‘g‘risida va kommunikatorni bir tomoniga yon bosyapti deb o‘yashgina majbur qiladi.

Birlamchilik va ikkilamchilik samarasi: birinchi kelib tushgan axborot ishonchliroq yangraydi, so‘nggi axborot (xabar) yaxshiroq esda qoladi.

Ikkilamchilik samarasi kamroq uchraydi. Yoddan chiqarish quyidagi hollarda ikkilamchilik samarasini hosil qiladi:



- 1) ikki xabar (axborot) o‘rtasida ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa;
- 2) auditoriya ikkinchi xabar (axborot)dan so‘ng ko‘p o‘tmay qaror qabul qiladi.

Kommunikatsiya kanalini tanlash muammosi. Kommunikatsiya kanali – xabar (axborot) uzatiladigan usul (yuzma-yuz, yozma ravishda yoki boshqa yo‘l bilan).

Kommunikatsiya kanalini tanlash xususiyatlari: bunda chop etilgan so‘z (matn) kuchi ustuvor hisoblanadi. Odamlar avvalroq o‘zlari o‘qigan yoki baholagan fikrlarni nisbatan haqqoniy deb biladilar.

Kommunikatsiya kanalini tanlash qoidasi: xabar (axborot) naqadar obrazli qilib uzatilsa, taqdim etilayotgan xabar (axborot) shu qadar ishonarliroq chiqadi. Oson tushuniladigan (anglanadigan) xabarlar ayniqsa video tasvir ko‘rinishida ishonarliroq bo‘ladi. Nashr etilgan xabar (axborot)lar uning ma’nosи ichiga chuqurroq kirish va uni yaxshiroq tushunib yetishni ta’minlab, tushunilishi murakkab xabar uzatilgan holatda ishonarliroq chiqadi. Ishonarlilik xabarning murakkabligi va tanlangan kommunikatsiya vositasi turining o‘zaro muvofiqligi bilan belgilanadi.

Odamlarga bilvosita uzatilgan axborot emas, balki ular bilan bevosita, yuzma-yuz uchrashish ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ommaviy axborot vositalari va shaxsiy qarashlar o‘zarobog‘liqdir, chunki ular aynan OAV ta’sirida shakllanadilar. OAV(ommaviy axborot vositalari) ta’siri ikki tabaqali kommunikatsiya oqimida yuz beradi: OAVdan – odamga, odamdan – ommaga.

Ijtimoiy (sotsial) va siyosiy ustanovka(qarash)larning yoshga bog‘liq ravishda tabaqlanishi kuzatilmoqda. Bu ikki omil bilan izohlanadi:

1) yosh o‘tishi bilan hayot sikllariga bog‘liq ravishda qarashlar ham o‘zgarib boradi;

2) katta yoshdagi (qari) odamlarning yoshlikda o‘zlashtirib olgan qarashlari asosan o‘zgarmay qolaveradi, avlodlar o‘rtasidagi uzilish (ajralish) ana shu qarash(ustanovka)lar orasidagi farqlanish tufayli paydo bo‘ladi.

Auditorianing xabarga turlicha reaksiya bildirishi:

1) agar xabar shunga muvofiq fikrlar keltirib chiqarsa, u ishontiradi;

2) agar xabar kontrargumentlar (asil dalil-isbotlar) to‘g‘risida o‘ylab qolishga majbur qilsa, avvalgi fikrni o‘zgartirish murakkabroq kechadi;

3) hozir ishonarli bo‘lmagan xabar kelib tushishi to‘g‘risidagi ogohlantirish aksil dalil-isbotlarni rag‘batlantiradi (kuchaytiradi) va uning ishonarlilik darajasini pasaytiradi;

4) auditoriya e’tiborini ehtimol tutilgan e’tirozlarni bartaraf etish darajasida chalg‘itishning imkonи bo‘lsa, munozara(bahs)li xabarning ishonarliligi ortib boradi.



Fikrash jarayonlarini rag‘batlantirish usullari:

1) ritorik savollar, kommunikatorlar qatori (barcha uch dalil-isbotni keltiradigan bitta notiq o‘rniga bittadan dalil keltirgan uch notiqning ketma-ket chiqishi);

2) xabarga baho berganlik yoki unga nisbatan e’tiborsizlik uchun mas’uliyat hissini paydo qilish;

3) notiq tomonidan erkin holat(poza)larni, ko‘p marotaba takrorlashlar va auditoriyaning tarqab ulgurmagan e’tiborini jalb qilish uslublarining qo’llanishi.

Demak kommunikatsiya (muloqot) insonni atrofdagi shaxslar bilan o‘zaro aloq o‘rnatish uchun vosita, usul bo‘lib hizmat qiladi. Shaxsning kommunikativ qobiliyati hayotda uchraydigan har qanday turdag'i konfliktlarni kelib chiqishida yoki mavjud konfliktlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Hayotimizdagi nizolarnim kelib chiqishida albatta shaxsning o‘zi sababchi bo‘ladi. Bizning atrofdagi insonlar o‘zaro aloqa o‘rnarish jarayonimizda biz kommunikatsion qonun-qoidalarga rioya qilib muloqot o‘rnatishimiz muhim hisoblanadi. Bizning muloqot jarayonimiz jarayonida yo‘l qo‘yadigan xatolarimiz orqali biz turli xil nizolarni keltirib chiqaramiz yoki niziolarni hal qilishimiz ham mumkin.

Adabiyotlar:

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktlogiya. O‘quv qo’llanma.
2. Axmedova M.T. Rashidov H.F. Pedagogik konfliktlami bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida. Maktab va hayot 2015.
3. Баныкина С.В. Конфликт в современной школе: изучение и управление 2006.
4. Jumayev R.Z. Konfliktlogiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. o‘quv qo’llamma, 2015.
5. R.Musurmonov, S.N.Jamoldinova. “Teacher communication as a Tool for the Prevention of Pedagogical conflicts”. Pindus journal of Culture, literature, and ELT. December 2021.
6. S.N.Jamoldinova. “Norms of teacher-student relationship to prevent conflict”. Galaxy international interdisciplinary research journal(giirj). Volume 9, Issue 12, December, 2021.
7. S.N.jamoldinova. “Harbiy kadrlarni tayyorlashning dolzarb muammolari: yechimlar va takliflar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022.

РЕЗЮМЕ

Inson hayotidagi nizoli vaziyatlarda kommunikativ qobiliyatning qonun-qoidalari haqida va ularni oqibatida turli xil nizolarni kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

Приведены сведения о правилах коммуникативных навыков в конфликтных ситуациях в жизни человека и о возникновении различных конфликтов в результате них.

SUMMARY

Information is provided about the rules of communication skills in conflict situations in human life and about the emergence of various conflicts as a result of them.